

O'ZBEKISTON TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA KOREYA RESPUBLIKASI TAJRIBASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Bekkayev Jasur

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Annotatsiya: Yurtimizning iqtisodiyotini yana ravnaq toptirish va yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida Turizm sohasiga davlatimiz rahbari alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Soha rivoji uchun zarur davlat dasturlari ishlab chiqarilib, ularni amaliyotga joriy etish va eng muhimi ular ustidan doimiy nazorat olib borib, erishilgan natijalar tahlil etilmoqda. Olib borilayotgan islohotlar natijasida bugun yurtimizni dunyo hamjamiyati yana bir bor tan olib, unga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda.

Kalit so'zlar: Koreya turizm sanoati, bo'sh ish o'rinlari, tarixiy obidalar, raqamli texnologiya, istirohat bog'lari, davlat dasturlari

Kirish: Qo'lga kiritilgan natijalarni yanada yaxshilash va yangi imkoniyatlarni topish borasida chet el tajribasini o'rganish va uni o'zimizda tatbiq etish ham samarali hisoblanadi. Shu jumladan Koreya Respublikasi ham bu borada uzoq yillik tajribaga ega va bu mamlakatning ham tajribasini o'rgangan holda o'zimizda tatbiq etish imkoniyatlari bor.

Asosiy qism: Nimaga aynan Koreya Respublikasi? degan savolga Koreya Respublikasi Xalqaro Sport musobaqalarini o'zida qabul qilib, dunyo ahlini bu mamlakatga qiziqishini orttirishga erishdi. 2002-yil 31-maydan boshlab 30-iyungacha Koreya Respublika va Yaponiyada bo'lib o'tgan Futbol bo'yicha jahon chempionati yoki bir qator Osiyo o'yinlarining o'tkazilishi orqali mamlakat turizm salohiyatida sezilarli o'zgarishlar bo'ldi, turistlar oqimi yildan-yilga o'sib bordi. Bu maqsadlarga erishish uchun 2000-yillarda turizm sanoatini tubdan yangilash maqsadida diversifikatsiya qilish va globalashtirish ishlari olib borildi. Bundan tashqari koreys madaniyati, musiqasi, kinosini dunyoga tanitish borasidagi harakatlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Natijada K-pop, K-drama kabilar rivojlanib, bugungi kunda dunyo bo'yicha o'zining millionlab muhlislarini topib kelmoqda. Shuningdek ichki va tashqi turizmni rivojlantirishda mamlakatdagi istirohat bog'larining ham holati o'rganilib, zamonaviy qilib qayta jihozlandi, bular qatoriga "Lotte World Adventure", "Everland" kabilar zamon talabiga mos qilib jihozlandi.

Natijalar: Bu islohotlar natijada "Lotte World Adventure" istirohat bog'iga tashrif buyuruvchilar soni 2022-yilga kelib 4.52 mln kishiga yetdi. Mamlakat tarixi, madaniyati va san'atini aholiga, shu bilan bir qatorda chet el ellik turistlarga tanishtirish bo'yicha ham jadal harakatlar olib borilib, yangi eksponatlar olib kelinmoqda va ularni elektron bazasi yaratilib mehmonlar uchun qulayliklar

yaratilmoqda. Qadimiy yodgorliklar va muzeylarga tashriflar soni 2022-yilda deyarli 3.4 mln kishiga yetdi. Bu natijalarga erishish uchun eng avvalo kadrlar masalasiga Koreya Respublikasi jiddiy e'tibor qaratdi, kadrlar malakasini AQSH, Yevropa, Xitoy, Yaponiya kabi ilg'or davlatlarda oshirish uchun dasturlar ishlab chiqdi va bir vaqtning o'zida eng muhim tarmoq hisoblanuvchi mehmonxona biznesini ham rivojlantirish ustuvor vazifa qilib belgilandi. Bu borada mehmonxonalarga davlat tomonidan moliyaviy yordam berilib, ularni chet et ellik investorlar bilan hamkorlikda ishlashlariga qulay muhit yaratildi. Yuqori darajada xizmat ko'rsatish uchun ishlab chiqilgan o'quv dasturlari orqali kadrlar mehmonxona va restoranlarda mehmonlar uchun sifatli xizmatlarni ko'rsatishni o'rganib, uni amaliyotga qo'llab kelmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib mamlakatimiz turizm salohiyatini yanada kengaytirish uchun bugungi kunda olib borilayotgan va re'jalashtirilgan ishlarni doimiy nazorat qilib, kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf qilish zarur. O'zbekistonni dunyoga tanitish borasida Sport sohasida ham bizda ulkan islohotlar amalga oshirilib kelmoqda, ularning natijasida 2024-yil Futzal bo'yicha jahon chempionati, 2025-yil IV yoshlar Osiyo o'yinlari o'tkaziladigan bo'ldi. Bundan tashqari Parij olimpiyadasida sportchilarimiz mamlakatimiz obro'sini yanada oshirib kelishdi, boks bo'yicha umumjamoa hisobida dunyoda 1-o'rinni olishlari dunyo hamjamiyatining bizning yurtimizga bo'lgan qiziqishni yanada oshishiga xizmat qiladi. Shular bilan bir qatorda turistlar uchun qulaylik yaratish maqsadida transport sohasida sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilib kelmoqda, dastlab "Afrosiyob" poyezdlarining keltirilishi Toshkent-Samarqand yo'nalishidagi yo'lovchilar manzilini yaqin qilgan bo'lsa, hozirda Shahrizabz va Xiva shaharlariga boruvchi turistlar uchun ham bu poyezdlar xizmat qilmoqda. Yana bir transport tarmog'i havo yo'llari bo'yicha ham olib borilayotgan islohotlar natijasida yangi turdagi samolyotlar olib kelinib, aeroportlarimiz rekonstruksiya qilinmoqda. Lekin bu borada qilinadigan ishlarimiz juda ko'p, Koreyaning Xalqaro Incheon Aeroporti qisqa vaqt ichida xizmat ko'rsatish va yo'lavchilarni qabul qilish bo'yicha dunyoning yetakchi aeroportlari qatoriga qo'shildi. Bu kabi Koreya Respublikasidan o'rganib mamlakatimizda amalga oshirsa bo'ladigan chora-taqbirlarga quyidagilarni keltirishimiz mumkin

- Kadrlar malakasini oshirish bo'yicha hamkorlikda dasturlar ishlab chiqish va ikki mamlakat turizm universitetlarida almashinuv programmalarini joriy qilish
- Obunachilarni ko'p bo'lgan bloggerlarni doimiy taklif qilish va ular orqali mamlakatimiz haqida ko'proq xabardor qilish
- Mehmonxonalarimizda xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash uchun Koreya Respublikasini tajribasidan foydalanish
- Transport sohasida Koreyadagi kabi tez yurar poyezdlar soni ko'paytirish va bu borada tajriba almashinish

- Chet tillarida ham foydalanish imkoniyati bo'lgan ilovalarni ko'proq yaratish va uni tatbiq qilish

Xulosa qilib aytganda yangi ish o'rinlarini yaratishda juda katta salohiyatga ega turizm sohamizni Koreya Respublikasi tajribasi orqali yanada kengaytirish va ko'plab ish o'rinlarini yaratishimiz mumkin. Janubiy Koreyada bugungi kunda bu sohada 1 millionga yaqin ish o'rni yaratilgan bo'lib mamlakatimizda bu ko'rsatkichni yanada ko'paytirish imkoniyati bor. Yildan-yilga zamonaviylashib, doimiy o'zgarishlar qilib borayotgan mamlakatdan bizning madaniyatimiz, urf-odatlarimizga mos keladiganlarini o'rganib, uni amaliyotga joriy etsak oldimizga qo'yilgan maqsadlarga o'z vaqtida va eng muhimi sifatli natijalar bilan erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yurtimizning turizm imkoniyatlari: Janubiy Koreya tajribasi. Nursulton To'xliyev. Jadid gazaetasi No.28, 2024-yil 5-iyul
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Janubiy_Koreya_Turizm_Sanoati